

# **«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»**

*Buyuk shoir va mutafakkir tavalludining 580 yilligiga  
bag'ishlangan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari*

*Toshkent, 2021-yil 8-fevral*

The Materials of the International  
Scientific-Theoretical Conference on the Theme

# **«ALISHER NAVOI AND THE XXI CENTURY»**

*Tashkent, 2021 year 8 february*

## MUNDARIJA

<b>Shuhrat SIROJIDDINOV.</b> Ahliy Sheroziy qasidasida Alisher Navoiy madhi.....	4
<b>İsa HƏBİBBƏYLİ.</b> Ədəbiyyatdan – əbədiyyətə.....	18
<b>Muslihiddin MUHİDDINOV.</b> «Hayrat ul-abror»da so'fiylar siymosi .....	28
<b>Tanju SEYHAN.</b> Oqqa'yunlilar davrida o'g'uz lahjasiga o'girilgan Alisher Navoiy devoni.....	36
<b>Ibrohim HAQQUL.</b> Ma'naviy valodat va o'zlik kamoli .....	46
<b>Ramiz ACKEP.</b> Didaktik edebiyatin şaheseri.....	53
<b>Muhammadjon IMOMNAZAROV.</b> Olti devon muqoyasasi ("Badoyi' ul-bidoya"ning yangi topilgan Tehron nusxasi asosida) ....	60
<b>Benedek PÉRI.</b> Peculiarities of Mîr Calî-Şîr Navâyi's Persian Poetry and Ottoman Turkish Poetry.....	81
<b>Nurboy JABBOROV.</b> Alisher Navoiy asarlarida "dunyo" timsoli va uning talqinlari .....	93
<b>Almaz ÜLVİ.</b> Nizami Gəncəvinin "İsgəndərnâmə"sində müdrik və ideal obrazın tərənnümü.....	103
<b>Berdak YUSUF.</b> Navoiy va purizm .....	113
<b>Boqijon TO'XLIYEV.</b> Ta'lîm bosqichlarida Alisher Navoiy lirik merosini o'rganish muammoları .....	119
<b>Nusratilla JUMAXO'JA.</b> Navoyi merosi va mulkdorlik madaniyatı Navoyi va bozor ma'naviyati.....	125
<b>Nafas SHODMONOV.</b> Alisher Navoiyning vaqt konsepsiysi .....	138
<b>Hamidulla DADABOYEV.</b> Alisher Navoiyning kinoya she'riy san'atini qo'llash mahorati.....	149
<b>Elçin Ali oğlu İBRAHIMOV.</b> Alişir Navai'nin Muhakemetü'l Lugateyn Eserinin Türkçe'ye Katkılari.....	157
<b>Zuhriddin ISOMIDDINOV.</b> Navoiyning ideali .....	165
<b>Aftondil ERKINOV.</b> Navoiyning "Ilk terma devoni" (1501-y.) Oqquyunlilarga tegishlimi? .....	175
<b>Uzoq JO'RAQULOV.</b> Navoiy "Xamsa"sidagi uch o'lim haqida .....	183
<b>Sultonmurod OLIM.</b> Majozdan maqsad – haqiqat.....	195

**ALISHER NAVOIYNING KINOYA SHE'RIY SAN'ATINI  
QO'LLASH MAHORATI**

**THE ARTISTIC MASTERY OF ALISHER NAVA'I IN THE  
CREATION OF IRONY**

**Hamidulla DADABOYEV**

*ToshDO'TAU  
(O'zbekiston)*

*Annotatsiya*

*Magolada Alisher Navoiyning she'riy san'atlardan biri bo'lmish  
kinoyadan nazmda foydalanish mahoratiga diqqat qaratilgan.*

*Kalit so'zlar: she'riy san'at, kinoya, parafraza, nazm, majoz,  
ifoda.*

*Annotation*

*The article focuses on the artistic mastery of Alisher Nava'i in applying irony in the poems.*

*Key words:* poetic art, sarcasm, paraphrase, poetry, metaphor, expression.

Tavalludining 580 yilligi Respublikada ko'tarinki ruhda keng nishonlanayotgan Alisher Navoiy hazratlarining o'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiy etishidagi ulkan xizmatlari xususida ko'pdan-ko'p izlanishlar olib borildi, son-sanoqsiz fikru mulohazalar nafaqat o'zbek, balki chet el navoiyshunoslari tomonidan o'rtaqa tashlandi.

Navoiy ijodining bot-bot bepoyon ummonga o'xshatilishi bejiz emas, zero, shoir qoldirgan betakror meros shu qadar keng va teranki, insoniyatning dunyo turgunga qadar bu xazinadan bahramand bo'lishiga shubha yo'q.

Adibning nazm va nasrda bitilgan bebaho asarlarida tilshunoslik va adabiyotshunoslikda azaldan mayjud usul va metodlar, chunonchi, she'riy san'atlar beistisno o'z ifodasini topgan.

Hozirgi tilshunoslikda biror so'z yoki ibora ma'nosini boshqa, aksariyat, obrazli so'zlar yordamida ifodalash parafraza (yoxud perifraza) termini bilan ataladi. Mumtoz adabiyotda ishlatilgan turfa ma'naviy san'atlardan biri-kinoya zimmasiga yuklatilgan vazifasiga muvofiq parafrazaga mos tushadi. 1981-yilda nashr qilingan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da arabcha **kinoya** o'zlashmasiga "masxaralash, kulish uchun aytigan pardali gap; qochirim, iztehzo, piching, kesatiq" tarzida izoh berilgan (L,386). 1988-yilda chop etilgan "O'zbekcha-ruscha lug'at" da **kinoya** 1) иносказание, allegoriya; metafora. 2) ironiya, sarkasm deya izohlangan (212). Ko'rindiki, terminning izohli lug'at tuzuvchilar nazaridan chetdan qolgan ma'nosni ikki tillik lug'at mualliflari tomonidan e'tiborga olingan. Vaholanki, 1969-yilda "Sovetskaya ensiklopediya" nashryotida e'lon qilingan "Farhangi zaboni tojiki" lug'atida **kinoya// kinoyat** 1. g'ayr az ma'nii aslii xud ba ma'ni mayozii digare kor farmuda shudani kalimavu ibora; 2. ramz, ishora (L, 553) tarzida izohlangan edi.

Mazkur maqolada **kinoya** istilohi ostida muayyan ob'yekt (denotat)ni o'zga so'z, so'z birikmasi bilan ifodalash, ya'ni majoz orqali ob'yekt (denotat)ga ishora qilish nazarda tutildi.

**Kinoya** she'riy san'atining turkiy adabiyotdagi ilk namunalari Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" pandnomasida ko'zga tashlanadi:

*Aniň tört eši ol avňgu körüb  
Keňaşči bular erdi birlä turub.*

Ma'nosi: *Uning to'rt eshi (chahoryorlar) ko'rib ovunishga loyiqdirlar. Bular (doim) birga turib kengashchi (bo'lar) edilar* (48).

Baytning birinchi qatorida qo'llangan tört eš birikmasi Muhammad (sav)ning sodiq izdoshlari, islam dunyosida **chahoryor, choryor, xulafoi roshidin** istilohlari ko'magida e'zozlangan Abubakr, Umar, Usmon va Aliga ishora qilingan.

XIV asrning oxiri - XV asrning birinchi yarmida yashab, ijod qilgan Xo'jandiy "Latofatnoma" asarida kinoyaning quyidagi go'zal namunasini ishlatishga tuyassar bo'lган:

*Sahar vaqtında kim Sultán-i xávar  
Jamálindin jahán boldi munavvar.  
Alib nayza eligä Xusrav-i čin  
Habaš sultánñi qavdī jahándin.*

Ma'nosi: Sahar chog'i Sharq hukmdori (quyosh) chiroyidan dunyo ravshan bo'ldi. Chin (Xitoy) hukmdori (quyosh) qo'liga nayza olib, Habashiston shohi (zulmat, tun) ni yer yuzidan quvib yubordi (34-35).

Baytlarda keltirilgan **Sultán-i xávar** va **Xusrav-i čin** izofalari "quyosh", **Habaš sultánñi** birikmasi esa "tun, zulmat, qorong'ulik" ka ishoradir. "Quyosh, yoritqich" ga ishora qiluvchi kinoyalar tarkibidagi **xávar** "Sharq va Chin (Yer kurrasining sharqida joylashgan Xitoy) istilohlari matniy ma'nodoshlikni voqealantirgan va ayni chog'da, Yer kurrasining g'arbidagi Habashiston (Efiopiya) ga nisbatan ma'lum darajada antonimiyanı yuzaga chiqargan. "Zulmat, tun" ni majozan **qara zäji** juft so'zi bilan ifodalash ilk bor "Qutadg'u bilig" da kuzatiladi:

*Belinläb udundi kötürdi basın  
Qara zäji qılımiş yüzini işin.*

Ma'nosi: *Cho'chib uyg'ondi, boshini ko'tardi, qora habash yuzini pardalabdi* (zulmat ketib, tong yorisha boshlabdi) (3247).

Alisher Navoiyning nazmida kinoyadan qay darajada foydalangani masalasi, bizningcha, tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari kesimida, ya'ni lingvopoetika nuqtai nazaridan maxsus tadqiq qilinishga loyiq. Zotan, kuzatishlar shoirning ayni she'riy san'atga tez-tez murojaat qilganini ko'rsatadi. Fikri ayrim ashyoviy materiallar bilan dalillashga harakat qilamiz.

"Saddi Iskandariy"ning hamd bobida adib Allohnning sifatlarini vasf etishda tubandagi baytni keltiradi:

*Ato yetti-yu, to'rt qilding ano,  
Natija uch etting bulardin yano* (12).

Birinchi misradagi yetti ato birikmasi ostida "yetti qavat osmon, etti falak" nazarda tutilgan bo'lsa, **to'rt** **ano** esa to'rt unsur-tuproq, suv, havo va o'tga ishoradir. Ushbu misradagi **to'rt** **ano** birikmasi, shuningdek, to'rt fasl-ko'klam, yoz, kuz, qishni ifodalashga yo'naltirilgan. Ikkinci qatorda qo'llangan **uch** **et=** birikmasi har

faslning uch oydan iboratligiga ishoradir. "Najm ul-javohir" da Navoiy **to'rt ano** o'rnida **anosiri arba** izofasini qo'llagan (15). "Sab'ai sayyor"ning bir o'rnida keyinga izofaning o'zbekcha **to'rt unsur** kalkasi ishlatalgan:

*To'rt gavharg'a bergasen tartib,*

*To'rt unsurni qilg'asen tarkib* (49).

"Saddi Iskandariy"ning beshinchchi bobida to'rt oromgoh kinoyasi "Xamsa" tarkibiga kiruvchi dastlabki to'rt doston, ya'ni "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" hamda "Sab'ai sayyor" ga nisbatan ishlatalgan:

*Chiqar yo'lida to'rt oromgoh,*

*Beshinchisi maqsad biloishitiboh* (35).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida faol ishlatalayotgan **she'riyat mulkining sultoni** parafrazining Alisher Navoiyga nisbatan qo'llanilishini hamma biladi. "Saddi Iskandariy" ning sakkizinchchi bobida doston muallifi ustozи Abdurahmon Jomiyni **nazm elining shahi** birikmasi bilan sarafroz etgan:

*Munga tegrukim nazm elining shahi,*

*Bu ish borcha dushvorining ogahi* (61).

Ma'nosi: *Bu kezda nazm ahlining shoh shoiri bo'lmish, bu ishning butun qiyinchiliklaridan xabardor* (Jomiy hazratlari).

Diniy falsafaga ko'ra, Tangri taolo jannat qatori, jahannamni ham yaratgan. Zero, insoniyatning bir bo'lagida go'zal xulq, yaxshi sifatlar, boshqa bo'lagida yomon xo'y, badfe'l qiliqlar aksini topadi. Shu bois insonlar ikki: yaxshi va yomon guruhlarga bo'linib, ikki uy, ya'ni jannat va do'zaxni to'ldiradilar:

*Ki, el qismi komu balo aylagay*

*Kim, ul ikki uymi to'lo aylagay* (SI, 65).

Alisher Navoiy tilning bosh ash'yosi hisoblanmish so'zga o'ta ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lgan. Muayyan so'zning ma'mohiyatidan kelib chiqqan holda uni o'z o'rnida mohirlik bilan qo'llagan, boshqalardan ham shuni talab qilgan. "Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz" hikmatli so'zida shoirning tilga, so'zga bo'lgan hurmati, dunyoqarashi yaqqol namoyon bo'lgan.

Arab tilidan ancha barvaqt o'zlashgan **xayl** so'zi "guruh, to'da; harbiylar" ma'nosi bilan eski o'zbek adabiy tilida faol

iste'mol qilingan. Shoir "Saddi Iskandariy" ning XV bobida ushbu o'zlashmani to'rt soni bilan sintagmatik munosabatga kiratadi va uni:

*Ki, bu to'rt xaylki topti ado*

*Ki, ko'k toqig'a soldilar ko'p sado.*

Baytda Eronda hukmronlik qilgan to'rt sulola, ya'ni peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniyalar va sosoniyalarning shohlariga ishora sifatida qo'llangan. Arab tilidan turkiy hamda fors-tojik tillariga o'zlashgan **arus** leksemasi "kelin, kelinchak" ma'nosida qo'llangan. Har ikki tilda mazkur o'zlashma "zamon, davr; asr" semasidagi boshqa bir arabcha, ya'ni **dahr** istilohi bilan birikib, **arusi dahr** izofasini vogelantirgan va fasllar kelinchagi, ya'ni "ko'klam fasli" ni ifodalashga yo'naltirilgan. Navoiy ayni izofani "Xazoyin ul-maoniy"da qayd etilgan ma'noda ishlatgan:

*Tunu kun jilva qilma ey arusi dahr; bergil naqqi jom,*

*Demagil xunbahodur ushbu yo kobimmidur? (IV a, 111).*

Ikkinci qatordagi **kobin** istilohi "nikoh oldidan kuyov tomonidan kelinga berilishi shart bo'lgan mol, mablag'", ya'ni mahrni anglatgan.

"Ulkan gavdali va katta xartumli hayvon, ya'ni fil" semasi eski o'zbek adabiy tilida **pil / fil** zoonimi bilan anglashilgan. Navoiy ushbu zoonimni **falak** o'zlashmasi bilan sintagmatik munosabatga kiritadi va "quyosh" ga kinoya qiluvchi **falak pili** relyativ izofasini yasaydi:

*Yana ming teva – har bir ko'htan,*

*Falak pilicha har biriga badan (SI, 371).*

Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida **sohiri hind** izofasini "hind sehrgari", "hind jodugari" ma'nosida ishlatgan:

*Ko'rgach bu tilisim sohiri hind,*

*Jodulig' ishida mohiri hind (56a21).*

"Favoyid ul-kibar"da ayni izofa hind sehrgari, jodugari kabi asarlari bilan kishilarni o'ziga rom etgan Amir Xusrav Dehlaviyga ishora sifatida qo'llangan:

*Biri mo'jiz bayonliq sohiri hind,*

*Ki, ishq ahlini o'rtar so'zu xoli (IV a443).*

"Sab'ai sayyor"da o'zbekcha muqobili – **hind sohirini** ishlatgan:

*Kim, qilib Hind sohiri kina,*

*Ul dag'i qo'ydi oncha ganjina (49).*

Ma'lumki, arabcha **shayx** istilohi eski o'zbek adabiy tilida "qari, mo'ysafid; tasavvuf bilimdoni; imom" ma'nolarini ifodalagan. Navoiy "Lison ut- tayr"da bu o'zlashmani **ma'naviy** so'zi bilan biriktirib, **shayxi ma'naviy** izofasini yasaydi va uni "Mantiq ut-tayr" asarining muallifi Shayx Fariduddin Attorga nisbatan qo'llaydi:

*Xam bu daftар ichra Shayxi ma'naviy*

*Kim, demish qushlar tilidin masnaviy* (210-13).

Shu o'rinda, "Saddi Iskandariy"ning oxirgi bobida **shayx** istilohining Nizomiy Ganjaviyga ishora sifatida qo'llanganini eslab o'tish foydadan xoli bo'lmas:

*Manga shayx birga ko'rishmak hamon,*

*Muborak ayog'ig'a tushmak hamon.*

Ma'nosи: *Men Nizomiy bilan ko'rishgan hamon, o'zimni uning muborak oyoqlariga tashladim* (574).

Nizomiyni o'z salafi deb bilgan Navoiy "Sa'bai sayyor"da **Ganja ganjuri** (Ganja shahri xazinasi) birikmasi yordamida u kishini madh etgan:

*Ganja ganjurikim, chekib ko'p ranj,*

*Qo'yimish erdi jahon aro besh ganj* (49).

Ikkinci misradagi **besh ganj** birikmasi Nizomiyning "Panj ganj" nomi bilan mashhur bo'lgan "Xamsa" siga ishoradir.

"Farhod va Shirin" dostonida Alisher Navoiy "Ganjada oltinlar, durlar sochuvchi" ma'nosini ifodalovchi forscha **ganjposhi Ganjaorom** izofasini Nizomiy va uning "Panj ganj" asariga ishora tarzida qo'llagan:

*Aning bu ganjidin topmay kishi kom,*

*Nechukkim, ganjposhi Ganjaorom* (13).

Ma'lumki, "Saddi Iskandariy"ning oxirgi boblaridan birida yetti hakimning Iskandar onasiga ta'ziya bildirishga kelgani xususida so'z yuritilan. Baytlardan birida Navoiy Iskandarning onasiga nisbatan **Bonuyi iffatpanoh** "nomuslik xonim" izofasini ishlatgan:

*Nechunkim, vasiyat yozib erdi shoh,*

*Amal qildi Bonuyi iffatpanoh.*

Mazmuni: *Shoh (Iskandar) qanday vasiyat yozib yuborgan bo'lsa, iffatpanoh bonu (ona) unga to'la amal qildi.*

Navoiy Iskandarning onasi obrazini matonatli, sabrli, dono va tadbirkor, qator fazilatlarga ega ayol sifatida tasvirlaydi. Adabiyotshunoslarning ta'kidlashicha, Iskandarning onasi obrazi yuqoridagi siyratlari bilan "Farhod va Shirin" dostonidagi bosh qahramonlardan biri Mehinbonu obraziga yaqin turadi.

Mumtoz adabiyotda ilmi nujumga oid anchagina astroponimlar aksini topgan. Chunonchi, yetti sayyoraning beshinchisi sifatida talqin qilingan **Mars** arabcha **Mirrih** va forscha-tojikcha **Bahrom** kosmonimlari qatori, **turki falak** izofasi bilan ham nomlangan. Rangi qizil, jang va qahramonlik ramzi sanaluvchi Marsning majozan **turki falak** tarzida atalishida turkiylarning jangovarligi, qahramonligi va jasoratiga ishora mavjud:

*Debon turki falak otqanda zihlar,  
Tavahhum toridin ochib giriilar.*

Ma'nosi: *U (Farhod) o'q otganda Mirrih ham ofarintlar o'qiysi* (FSh, 71).

"Farhod va Shirin"ning qirqinchi bobida shoir **telba qush** va **ishq bulbuli** birikmalari orqali Farhodga ishora qilgan: va ul xiylagar afsun rishtasi domin ochib, tazvir ashki donasin sochib, ul telba qushni giriftor qilg'ani, balki bul ish bila ul ishq bulbulining xushin uchurg'ani (313).

Xullas, Alisher Navoiy nazmiyda bitilgan asarlarida she'riy san'atlardan mohirona foydalangan, xususan, kinoya lafziy san'ati yordamida faqat o'ziga xos ifodalarni qo'llashga muvaffaq bo'lган.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Xamsa. Farhod va Shirin. MAT. Sakkizinch tom. –T.: Fan, 1991.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. Sab'ai sayyor. O'ninch tom. –T.: Fan, 1992.
3. Alisher Navoiy. Xamsa. Saddi Iskandariy. O'n birinchi tom. –T.: Fan, 1993.
4. Alisher Navoiy. Xamsa. Layli va Majnun. Ilmiy-tanqidiy matn. Tuzuvchi: Porso Shamsiyev (qo'lyozma).
5. Alisher Navoiy. Lisonut-tayr. Ilmiy –tanqidiy tekst, tayyorlovchi: Sh. Eshonxo'jaev. –T.: 1966.

6. Alisher Navoiy. Xazoyinul-maoniy. G'aroyibus-sig'ar. Birinchi tom. -T.: 1963.
7. Alisher Navoiy. Xazoyinul-maoniy. Favoyidul- kibar. To'rtinchi tom. -T.: 1965.
8. Xojandi. Latafat-name. Kniga o krasote Vyedenie, transkripsiya teksta, perevod, glossariy, grammaticheskiy ukazatel. E.I. Fazilova. -T.: Fan, 1976.
9. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. (Saodatga yo'llovchi bilim). Nashrga tayyorlovchi f.f.n. Q. Karimov. -T.: Fan, 1971.